

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TA'LIM BILAN BIRGA TARBIYANING UYG'UNLIGI

Xolmirzayeva Kamolaxon Otabek qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich 25-11-guruh talabasi

Qo'ychiyeva Zarnigor Abdmannob qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

“Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsent v.b. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim jarayoni bilan bir qatorda tarbiyaning uyg'un holda olib borilishining pedagogik ahamiyati yoritilgan. Unda o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida bilim berish bilan birga axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy tarbiyaning o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va samarali metodlardan foydalanish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, ta'lim va tarbiya, uzviylik, tarbiyaning maqsadi, ma'naviyat, axloq, ma'naviy rivojlanish, pedagogik mahorat.

Kirish. Sharq va g'arb mutafakkirlari ta'lim va tarbiyani inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va axloqiy yuksalishning asosi deb bilishgan. Ularning fikricha, tarbiya yoshlikdan boshlanishi, ilm va mehnat uyg'unlikda olib borilishi, muallim esa yuksak namunaga ega bo'lishi lozim. Ta'lim - bilim berish bo'lsa, tarbiya - insonni komillikka yetaklovchi ma'naviy tarozidir.

Sharq va g'arb mutafakkirlari ta'lim-tarbiya to'g'risidagi shunday fikrlarni ilgari surganlar:

Abu Nasr Farobiy: Tarbiyani bilim berish (ta'lim) va axloqiy shakllantirish deb bilgan. Uning fikricha, jismoniy va ma'naviy tarbiya uyg'un bo'lishi kerak.

Abu Ali ibn Sino: Bola tarbiyasida jismoniy sog'liq, hunar o'rgatish va yoshiga mos bilim berish muhimligini ta'kidlagan.

Yusuf Xos Hojib: “Qutadg'u bilig” asarida ilmiy va tarbiyali insonni jamiyatning eng oliy bo'g'ini deb bilgan. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalaridan biri – bilimli, mustaqil fikrlay oladigan ma'naviy yetuk va jamiyatga foydali shaxsni tarbiyalashdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi bola shaxsining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli bu bosqichda ta'lim va tarbiya jarayonlarining uyg'un holda olib borilishi dolzarb masala hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar, “Ta'lim to'g'risida”gi qonun hamda milliy dasturlardan ham yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa boshlang'ich sinfda ta'lim bilan birga tarbiyani uyg'un tashkil etishning dolzarbligini yanada oshiradi[4].

Asosiy qism. Ta'lim va tarbiya bir-birini to'ldiruvchi, ajralmas jarayonlardir. Ta'lim orqali o'quvchiga bilim, ko'nikma va malakalar berilsa, tarbiya jarayonida esa uning ma'naviy dunyosi, axloqiy qarashlari va shaxsiy sifatleri shakllanadi. Agar ta'lim tarbiyasiz olib borilsa, o'quvchi faqat nazariy bilimga ega bo'lib qoladi, lekin uning shaxsiy fazilatlari yetarlicha rivojlanmaydi. Tarbiya esa ta'lim bilan uyg'unlashgan holda o'quvchini komil inson sifatida kamol toptiradi. Ta'lim va tarbiya tizimida yoshlarda ijobiy xulq-atvorni

tarkib toptirish axloqiy tarbiyaning asosiy shartidir. Axloqiy tarbiya deganda shakillanayotgan, rivojlanayotgan, o'sib kelayotgan avlodda xulq-odob me'yorlariga mos keluvchi sifatlarning tarkib topishi tushuniladi[2]. Axloqiy tarbiya – bu ta'lim oluvchilarni ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor qilish, ularga axloqiy me'orning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ijtimoiy-axloqiy me'yorlar talab va taqiqlarga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida aqliy ong madaniyatini shakllantirishdir. Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim va tarbiyani birlashtirgan holda o'quv jarayonida nafaqat an'anaviy bilimlarni, balki axloqiy qadriyatlarni ham singdirishni taqozo etadi. Bu yosh avlodni milliy g'oyalar, vatanparvarlik tuyg'usi, insonparvarlik, halollik kabi fazilatlar bilan tarbiyalashga imkon yaratadi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, ijodiy ishlar va ijtimoiy loyihalar orqali tarbiyaviy ishlar samaradorligi oshirilmoqda. Ta'lim tizimida tarbiya va ta'limning uzviyligi kontseptsiyasi yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida barkamol rivojlanishi uchun muhimdir. Ta'lim jarayoni davomida nafaqat bilimlarni o'rgatish, balki axloqiy me'yorlar, mehnatsevarlik, fidoyilik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga katta e'tibor qaratiladi[1]. Bu esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'un integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish orqali o'quvchilarda o'zaro hurmat, hamjihatlik, jamiyatga foydali bo'lish kabi xislatlar shakllanadi. Tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishning shakl va uslublariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Asosiy maqsad, o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. O'qituvchi tarbiya usullari tizimini belgilab olgandan keyin bir qator aloqa o'rnatish vazifalarini rejalashtirish kerak.

Ta'lim-tarbiya jarayonining izchil, va uzluksiz, tizimli hamda, aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda, fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir.

Maktab va oilaning uzviy hamkorligi ham bugungi kun talabi hisoblanadi.

Ota-onalar bilan muntazam muloqot, ularni ta'lim va tarbiya jarayoniga jalb qilish yoshlarning ijtimoiy-madaniy muhitda to'g'ri shakllanishini ta'minlaydi. Tarbiya va ta'limning uyg'unligi aynan shu uchlik - maktab, oila va jamiyat o'rtasidagi o'zaro integratsiya bilan amalga oshadi. Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida tarbiya va ta'limning uzviyligi yoshlarni kompleks ravishda shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar muhim o'rin tutadi. Masalan, loyiha asosida o'qitish, guruhda hamkorlik, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi yondashuvlar nafaqat bilim, balki axloqiy va ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlashga

xizmat qiladi. Bu usullar o'quvchilarda mustaqillik va mas'uliyatni rivojlantirishda yordam beradi, ularning jamiyatdagi o'rni va vazifalarini anglashini oshiradi.

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonlarining uzviyligi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu sohada doimiy yangiliklar va takomillashtirishlar olib borilmoqda. Bu esa yoshlarning kompleks, barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Bundan tashqari, ta'lim tizimida individual yondashuvni kuchaytirish masalasi ham dolzarbdir. Har bir bolaning qobiliyati, qiziqishlari, ijtimoiy muhitini hisobga olgan holda tarbiya va ta'lim jarayonini moslashtirish yoshlarni o'z imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga yordam beradi. Yangi O'zbekistonda ta'limda milliy qadriyatlar bilan birga, demokratik tamoyillar va zamonaviy axloqiy printsiplar ham keng tatbiq etilmoqda. Bu esa yoshlarni xalqaro maydonda raqobatbardosh, keng dunyoqarashli va ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalash imkonini beradi[3].

Innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida tarbiya va ta'lim jarayoni yanada samarali bo'lib, shaxsga individual yondashuvni kengaytiradi. Masalan, loyihaviy faoliyat, guruh ishlari, interaktiv o'yinlar orqali nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, jamoaviy ruhni shakllantirish mumkin. Bu esa o'z navbatida yoshlarni jamiyatda faol va ma'suliyatli shaxslar sifatida tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi pedagogik jarayonning eng muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki aynan boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida, uning dunyoqarashi, xulq-atvori, odob-axloqi va ijtimoiy munosabatlarining rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarda ezgu fazilatlarni tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmagan holda olib borilgandagina o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqish kuchayadi, mustaqil fikrlash, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi sifatlar shakllanadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik mahorati, dars jarayonida tarbiyaviy maqsadlarni ham ko'zda tutishi, o'quvchilar bilan individual yondashuv asosida ishlashi ushbu uyg'unlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimida komil insonni tarbiyalash asosiy vazifalardan biri bo'lib, bu jarayonda ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash yanada dolzarb masalaga aylanmoqda. Demak, boshlang'ich ta'limda ta'lim bilan birga tarbiyani uyg'un holda tashkil etish, kelajakda barkamol, ongli va ma'naviy yetuk avlodni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Xolov Olimjon Chorshamiyevich. Umumiy Pedagogika o'quv qo'llanma. Toshkent-"NIF MSH"-2023.
2. Abdullayev B.S., Xoliqova A.A., Farsaxonova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M.B. Umumiy pedagogika pedagogika nazariyasi, pedagogikga tarixi. Toshkent-"Innovatsiya-Ziyo"-2021.

3. Xudoyberdiyeva, M. Ta'lim va tarbiyaning uzviyligi muammolari. Toshkent - 2020. O'qituvchi.
4. Abdullaeva S. Ta'limda axloqiy tarbiya metodlari. Toshkent-2018. Ilmiy nashr.